



THE CONCEPT OF OBTAINING SAMPLES FOR FORENSIC EXAMINATION

Shukurullo Agoyev

independent researcher

*Academy of the Ministry of Internal Affairs
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: forensic examination, obtaining samples, criminal procedural law, terminological analysis, investigative action, legal-linguistic approach, procedural norms, semantic adequacy.

Received: 16.05.25

Accepted: 18.05.25

Published: 20.05.25

Abstract: This scientific research is devoted to a comprehensive analysis of the legal-linguistic and semantic aspects of the investigative action "obtaining samples for forensic examination" enshrined in Chapter 23 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. The author conducts an in-depth study of the structure, substantive essence, and practical application of this term within the framework of national and international legal regulations. The study identifies existing terminological inconsistencies and provides a comparative analysis of various scientific and theoretical approaches. Based on scientifically substantiated conclusions, the author advances the term "obtaining samples for forensic examination" as a conceptually complete and practically appropriate notion, developing well-founded proposals for improving its legal definition.

EKSPERTIZA TEKSHIRUVI UCHUN NAMUNALAR OLİSH TUSHUNCHASI

Shukurullo Agoyev

mustaqil izlanuvchi

IIV Akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekspertiza tadqiqoti, namunalar olish, jinoyat-protsessual huquq, terminologik tahlil, tergov harakati, huquqiy-lingvistik yondashuv, protsessual normalar, semantik moslik.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-bobida mustahkamlangan "ekspertiza tekshirushi uchun namunalar olish" tergov harakatining huquqiy-lingvistik va

semantik jihatlarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Muallif ushbu terminning tuzilishi, mazmun-mohiyati va huquqiy amaliyotdagi qo‘llanilishini milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar doirasida chuqur o‘rganadi. Tadqiqotda mavjud terminologik nomutanosibliklar aniqlanib, turli ilmiy-nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil etiladi. Muallif ilmiy asoslangan xulosalar asosida "ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish" atamasini mazmunan to‘liq va amaliy jihatdan maqbul tushuncha sifatida ilgari surib, uning huquqiy ta’rifini takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqadi.

ПОНЯТИЕ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Шукурулло Агоев
независимый исследователь
Академия МВД
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экспертное исследование, получение образцов, уголовно-процессуальное право, терминологический анализ, следственное действие, юридико-лингвистический подход, процессуальные нормы, семантическая адекватность.

Аннотация: Данное научное исследование посвящено комплексному анализу юридико-лингвистических и семантических аспектов следственного действия "получение образцов для экспертного исследования", закрепленного в главе 23 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан. Автор глубоко изучает структуру, содержательную сущность и практическое применение данного термина в контексте национальных и международных нормативно-правовых актов. В исследовании выявляются существующие терминологические несоответствия и проводится сравнительный анализ различных научно-теоретических подходов. На основе научно обоснованных выводов автор выдвигает термин "получение образцов для экспертного исследования" как содержательно полное и практически целесообразное понятие, разрабатывая обоснованные предложения по совершенствованию его юридического определения.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-bobi “Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish” sarlavhasi bilan belgilangan. Mazkur atamaning huquqiy-lingvistik

jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilganligini aniqlash maqsadida tarkibiy so‘zlarning semantik tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu bob nomlanishining ilmiy asoslanganligini baholash uchun huquqiy terminologiyadagi “ekspertiza”, “tekshiruv” va “namunalar olish” tushunchalarining lug‘aviy mazmunini chuqur o‘rganish zarurati mavjud.

O‘zbek izohli lug‘ati jamlangan “Izoh.uz” saytida “Ekspertiza-qiyin yoki chigal masalani yechish va hal qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish, shunday tekshirish o‘tkazuvchi mutaxassislar hay’ati”[1] ma’nosini anglatishi izoh berilgan.

EKSPERTIZA (lot. responsa, responsio-javob so‘zidan; ing. expert examination, expertise; fr. expertise) – mutaxassis yoki mutaxassislar guruhni tomonidan u yoki bu sohada malakali yechim talab qilinadigan masalalarni o‘rganish (tibbiy E., sud E.si, san’at E.si, buxgalteriya E.si, ekologiya E.va b.) E.ning amaliy yoki hujjat tarzidagi natija ekspertining yoki ekspertlar guruhining xulosasi hisoblanadi.[2]

A.Madvaliev tahriri ostida tuzilgan 80.000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini mavjud bo‘lgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da[3] hamda “Vikilug‘at” saytida[4] “EKSPERTIZA [fr.expertise < lot.expertus tajribali; sinalgan] Qiyin yoki chigal masalani yechish va hal qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish, shundan tekshirish o‘tkazuvchi mutaxassislar hay’ati” degan ta’rif bir xil ifoda etilgan.

EKSPERTIZA (lot. tajribali) — mutaxassis yoki mutaxassislar guruhni tomonidan u yoki bu sohada malakali yechim talab qilinadigan masalalarni o‘rganish (tibbiy E., sud ekspertizasi, san’at E.si, buxgalteriya E. si, ekologik E. va boshqalar). E.ning amaliy yoki hujjat tarzidagi natijasi ekspert (mutaxassis)ning yoki ekspertlar guruhining xulosasi hisoblanadi. Ekspertning fikri majburiy hisoblanmasada, unga qo‘shilmaslik tegishli qarorlar, ajrimlar va hukmda asoslab qayd etilishi kerak. Agar E. to‘la yoki yetarli darajada aniq emas deb topilsa, qo‘shimcha E. tayinlanishi mumkin.[5]

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi JPKning 172-moddasida[6] “Ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda ekspertiza tayinlanadi” deb ko‘rsatib o‘tilgan.

“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonun[7] va O‘zbekiston Respublikasi VMning 2023 yil 21 fevralda qabul qilingan 73-sonli “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” gi qarorida[8] “EKSPERTIZA” so‘zi “SUD EKSPERTIZASI” yoki “SUD EKSPERTIZASI TADQIQOTI” sifatida ishlatalib, unda “sud ekspertizasi tadqiqoti (keyingi o‘rinlarda — tadqiqotlar) — fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma’muriy sud ishlari va ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish holatlarini aniqlashga va sud eksperti

tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida tadqiqotlarni o'tkazish va xulosa berishga hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan hamda natijasi bo'yicha mutaxassis fikri taqdim etilishiga qaratilgan faoliyat" degan ta'rif berilgan.

Ushbu ta'riflarni ma'nosiga diqqat bilan e'tibor beradigan bo'lsak, ekspertiza bu qandaydir chuqr tekshiruvlarni aniqroq va ilmiyroq tilda aytganda tadqiqotlar o'tkazilgangan sohani anglatar ekan.

Endi "tekshiruv" yoki "tekshirmoq" so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, u "Izoh.uz" saytida[9] va A.Madvaliev tahriri ostida tuzilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"[10] da to'rtta:

1. To'g'ri-noto'g'ri, haq-nohaqligini bilish maqsadida ko'zdan, e'tibordan o'tkazmoq;
2. Mohiyatini, haqiqiy holni bilish, aniqlash uchun ko'zdan, e'tibordan o'tkazmoq;
3. Ilmiy asosda o'rganmoq, tahlil, tadqiq qilmoq;
4. Nazorat uchun ko'zdan kechirmoq, taftish, reviziya qilmoq; ma'noda ta'rif berilgan.

"Uchun" so'zi esa ko'makchi so'z bo'lib, sabab, maqsad, atalganlik kabi ma'nolarni bildiradi, shunday ma'noli munosabatlarni ko'rsatadi[11].

"Namunalar" yoki "namuna" so'zi esa izohlayotgan jumlamizdagi eng yaqin ma'noda "Izoh.uz" saytida "Bir turdag'i narsalarning shu narsalar haqida tasavvur bera oladigan bir nusxasi, bo'lagi, donasi"[12] ma'nosida va "olish" so'zi esa "olmoq fe'lining birgalik nisbati"[13] ma'nosida ifodalangan.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakati ayrim davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligidagi, xususan, Rossiya Federatsiyasi JPKning 202-moddasi[14] va Tojikiston Respublikasi JPKning 215-moddasida[15] "qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar olish" ("Получение образцов для сравнительного исследования") sifatida qayd etilgan. Bizning jinoyat protsessual qonunimizda esa bu tushuncha 23-bobda "*Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish*" (Получение образцов для экспертного исследования) tarzida, "Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 14-moddasida tezkor qidiruv tdbirlarining turi sifatida "*qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig'ish*" tarzida ifodalangan. Bu esa qonun ijrosida va huquqiy amaliyotda ushbu jarayonga nisbatan qaysi atamani qo'llash huquqiy jihatdan maqbul ekanligi masalasini yuzaga keltiradi. Shu bois, terminologik aniqlikni ta'minlash maqsadida mazkur jarayonning mazmun-mohiyati va huquqiy ta'rifi aniq belgilash zaruriyati mavjud.

Shu zaruratdan kelib chiqib, mazkur atamaning huquqiy-lingvistik jihatdan to'g'ri qo'llanilganligini aniqlash maqsadida uni tashkil etuvchi tarkibiy so'zlarning semantik tahlilini o'tkazish zarur, deb hisoblaymiz. Bunda har bir so'zning ma'no doirasini tahlil qilish orqali ushbu huquqiy atamaning yuridik kontekstda qo'llanilishi va uning mazmuniy mosligini baholash mumkin.

Shuningdek, ushbu tahlil asosida «Получение образцов для экспертного исследования» va «Получение образцов для сравнительного исследования» atamalarining har biri qonun ijrosi va ekspertiza jarayonlarida qo'llanilish doirasini baholab, qaysi termin huquqiy va ilmiy nuqtai nazardan maqbulroq ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Huquqiy-terminologik tahlil nuqtai nazaridan, “Qiyosiy” atamasi o‘zbek tilining rasmiy lingvistik manbalarida belgilangan ma’noga ega bo‘lib, uning ta’rifi «Izoh.uz» sayti[16] va O‘zbek tilining izohli lug‘atida[17] quyidagicha keltirilgan: “Qiyosiy – o‘zaro taqqoslashga, qiyoslashga asoslangan”, hamda etimologik jihatdan “Qiyosiy [arabcha – qiyoslashga asoslangan, qiyosan] – O‘zaro taqqoslashga, qiyoslashga asoslangan” deb belgilangan.

“Tadqiqot” atamasi o‘zbek tilining rasmiy lingvistik manbalarida quyidagicha ta’riflangan: “Tadqiq ishi, tekshirish, o‘rganish ishi”, shuningdek, “Ilmiy tekshirish ishining natijasi” [18][19].

Semantik jihatdan “tadqiqot” tushunchasi ma’lum bir hodisa, jarayon yoki ob’ektni chucher tahlil qilish, tekshirish va o‘rganish orqali ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirish jarayonini anglatadi. Bunda ilmiy va amaliy tadqiqot usullari qo’llanib, ma’lumotlarni aniqlash, dalillarni tahlil qilish hamda natijalarni ilmiy jihatdan tasdiqlash maqsad qilib qo‘yiladi. Shuning uchun “tadqiqot” atamasi ilmiy-huquqiy kontekstda asosli tekshirish va tahlil qilish jarayonini ifodalovchi fundamental tushuncha sifatida qo’llaniladi.

Jinoyat-protsessual huquqida “namunalar olish” tergov harakati terminologiyasi bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy muammolar mavjud. Turli huquqiy tizimlarda, doktrinal manbalarda va normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur atamaning mazmuni, mohiyati va huquqiy tabiatи turlicha talqin etilishi kuzatilmogda. Bu esa ushbu tergov harakatining protsessual ahamiyatini aniqlashda, uning isbotlash jarayonidagi o‘rnini belgilashda va qonuniy protseduralarini ishlab chiqishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ayniqsa, bir ilmiy-uslubiy manbaning o‘zida ham “solishtirib ko‘rish uchun namunalar olish”[20], “taqqoslash uchun namunalar olish”[21], “tajribaviy namunalar olish”[22] kabi turli nomlar qo’llanilishi ushbu atamaning normativ-huquqiy ta’rifini ishlab chiqishda va unifikatsiya qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunday terminologik pluralizm nafaqat nazariy-konseptual chalkashliklarni, balki amaliy-protsessual muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Jinoyat protsessi fanida bu kabi terminologik noaniqliklar va nomuvofiqqliklar huquqni qo’llash amaliyotida ushbu tergov harakatining maqsadi, vazifalari va protsessual tartibi bo‘yicha turlicha talqinlarga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, sud-tergov amaliyotida protsessual qonunchilikning bir xilda qo’llanilishi va protsessual harakatlarning qonuniyligini ta’minlash bo‘yicha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida ushbu tergov harakatining nomlanishi bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish natijasida, tadqiqotchilarning birinchi guruhi alohida e’tiborga loyiq.

Bu guruh vakillari O'zbekiston Respublikasi JPKning 23-bobida belgilangan rasmiy terminologiyaga tayangan holda "ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish" atamasini qo'llashni ma'qul ko'radilar.

Xususan, I.R.Astanov[23], M.Dj.Botaev[24] va M.X.Abduraximov[25] kabi olimlar o'z ilmiy ishlarida aynan shu atamani qo'llab, ushbu tergov harakatining qonuniy asoslariga sadoqat bildirganlar. Bu yondashuv ushbu tergov harakatining asosiy maqsadini - ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallarni olishni ta'kidlaydi.

Ammo, ushbu atamada qo'llanilgan "tekshiruv" so'zi ma'no jihatidan torroq bo'lib, yuzaki o'rghanishni anglatishi mumkin. Holbuki, ekspertiza jarayonida namunalar oddiy tekshiruv emas, balki chuqur ilmiy-tadqiqot jarayoniga jalb etiladi. Bu esa «tekshiruv» so'zi emas, «tadqiqot» so'zi orqali aniqroq ifodalanishi mumkin. Chunki ekspertiza tergov harakatining mohiyati mutaxassis tomonidan o'tkaziladigan oddiy tekshiruvdan farqli o'laroq, maxsus ilmiy bilimlar va uslublarga asoslangan chuqur tadqiqotni nazarda tutadi.

Shunday qilib, birinchi guruh olimlari qo'llagan «ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish» atamasi ushbu tergov harakatining mohiyatini aks ettirsa-da, uning ilmiy-tadqiqot tabiatini to'liq ifodalashda muayyan cheklov larga ega.

Ikkinci guruh ilmiy-nazariy yondashuvi namoyandalari A.X.Raxmankulov[26], D.M.Mirazov[27], Sh.A.Kulmatov[28] va B.A.Saidov[29] kabi olimlar ushbu tergov harakatini "ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish" deb nomlashni ma'qul ko'radilar. Bu atama birinchi guruh olimlari tomonidan qo'llanilgan "ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish" atamasidan farqli ravishda "ekspertiza" so'zini "ekspert" so'zi bilan almashtirib, terminni o'zgacha talqin qiladi.

Biroq, ushbu yondashuv muayyan konseptual cheklov larga ega. "Ekspert tekshiruvi" atamasi tergov harakatining mazmun-mohiyatini ancha toraytirib yuboradi. Bu atama tekshiruv jarayonini faqat alohida bir ekspert tomonidan o'tkazilishini nazarda tutadi. Holbuki, amaliyotda turli murakkab jinoyat ishlari bo'yicha ekspertizalar komissiyaviy yoki kompleks tarzda, ya'ni bir nechta ekspertlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, "ekspert tekshiruvi" atamasi protsessual qonunchilikda mustahkamlangan "ekspertiza" tushunchasining institutsional mohiyatini to'liq qamrab ololmaydi. Ekspertiza - bu nafaqat ekspert shaxsi bilan, balki tegishli ekspertiza muassasasi faoliyati, muayyan metodologiya va protsessual tartib-qoidalar bilan bog'liq kompleks jarayondir.

Bu terminologik nuqson huquqni qo'llash amaliyotida ushbu tergov harakatining protsessual ahamiyati va doirasini aniqlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, tergov amaliyotida ushbu tergov harakatini o'tkazish tartibi, uning natijalaridan

foydalaniш imkoniyatlari va isbotlash jarayonidagi ahamiyatiga doir tushunmovchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli orttiradi.

Uchinchi guruh ilmiy-konseptual yondashuvi tarafdorlari ushbu tergov harakatining asosiy jihatlaridan biri — qiyosiy tahlil elementini asos qilib olib, uni “qiyosiy tekshiruv uchun namunalar olish” atamasi bilan ifodalashni ma’qul ko‘radilar. Bu olimlar kriminalistik ekspertiza amaliyotida namunalar olishning eng ko‘p tarqalgan maqsadi — qiyosiy tahlil ekanligidan kelib chiqadilar. Ularning metodologik qarashlariga ko‘ra, tergov harakati nomlanishida aynan shu jihat aks etishi mantiqan to‘g‘ri sanaladi.

Ushbu yondashuv doirasida namunalar olishning protsessual ahamiyati asosan identifikatsion vazifalarni hal qilish, ya’ni jinoyat ishi uchun ahamiyatli ob’ektlarni boshqa ob’ektlar bilan qiyoslab, ularning aynanligini aniqlash bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Shuningdek, mazkur yondashuv tarafdorlari kriminalistika fanida qiyosiy tekshiruv metodi yetakchi o‘rin tutishini ta’kidlaydilar.

Bu guruhg‘a B.Mirenskiy[30], A.Asamutdinov, J.Kamalxodjaev va Q.Matkarmov[31] kabi taniqli huquqshunos olimlar kiradi. Ular o‘z darslik va ilmiy ishlarida aynan “qiyosiy tekshiruv uchun namunalar olish” terminologiyasini qo‘llaganlar.

Bu guruh vakillari tomonidan qo‘llanilgan “qiyosiy tekshiruv uchun namunalar olish” atamasi kriminalistik ekspertizalarning aksariyat hollarda qiyosiy tahlilga asoslanishidan kelib chiqadi. Ularning nazariy yondashuvi bo‘yicha, namunalar olishdan asosiy maqsad - bu ularni dalil sifatida aniqlangan ob’ektlar bilan solishtirish, ya’ni identifikatsiya qilish hisoblanadi.

Biroq, mazkur terminologiya ushbu tergov harakatining qamrovini sezilarli darajada cheklaydi va uning mohiyatini to‘liq aks ettirmaydi. Chunki, ekspertiza amaliyotida namunalar nafaqat qiyosiy tahlil uchun, balki mustaqil diagnostik tadqiqotlar uchun ham olinishi mumkin.

Jumladan, moddalarning tarkibini aniqlash, biologik ob’ektlarni toksikologik tekshirish, kriptografik tahlil, jinsni aniqlash, termik manba ekspertiza va boshqa ko‘plab holatlarda olingan namunalar qiyoslanmasdan, balki ularning o‘zidagi xususiyatlarni aniqlash orqali jinoyatga oid muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Biroq, namunalar ushbu holatlarda ham ushbu tergov harakati qoidalari asosida yig‘iladi hamda taqdim qilinadi.

Shu bois, “qiyosiy tekshiruv uchun namunalar olish” atamasi ushbu tergov harakatining maqsadi va doirasini to‘liq qamrab ololmaydi. To‘g‘rirog‘i, bunday yondashuv namunalar olish tergov harakatining identifikatsion bo‘lmagan, diagnostik turlarini inobatga olmaydi va bu tergov harakatining amaliyotdagi to‘liq qo‘llanish doirasini cheklab qo‘yadi.

Binobarin, uchinchi guruh vakillarining yondashuvi ushbu tergov harakatining faqat qiyosiy-identifikatsion jihatini e’tiborga olgani holda, uning kengroq qamrovdag‘i diagnostik va boshqa funksiyalarini hisobga olmaydi.

To‘rtinchi guruhga ushbu tergov harakatini turli atamalar bilan ifodalagan olimlarni kiritish mumkin. Bu guruh vakillari o‘z ilmiy ishlarida yuqoridagi uch guruh olimlari qarashlariga yaqin, ammo terminologik jihatdan o‘ziga xos atamalarni qo‘llaydilar. Yuridik adabiyotlarda, ilmiy tadqiqotlarda va darsliklarda uchraydigan bunday xilma-xil atamalar yuridik terminologiyaning bir xillashtirilmaganligidan yaqqol dalolat beradi.

Jumladan, bu guruhga quyidagi atamalarni qo‘llagan olimlarni kiritish mumkin:

1. “Qiyosiy tadqiqot uchun olingan namunalar” atamasini qo‘llagan S.A.Nurumbetova[32] - bu atama nisbatan aniqroq va mazmunan to‘g‘riroq hisoblanadi, chunki “tadqiqot” so‘zi “tekshiruv” so‘ziga nisbatan kengroq, ilmiy asoslangan jarayonni ifodalaydi.
2. “Qiyosiy tahlil qilish uchun namunalar olish” terminini qo‘llagan R.R.Shakurov[33], Sh.T.Djumanov, N.Toshtemirov, D.R.Turaeva, O.D.Allanazarov. Bu atama “tekshiruv” o‘rniga “tahlil” so‘zini qo‘llab, jarayonning analitik jihatini ta’kidlaydi, biroq yuqorida ko‘rsatilgan diagnostik funksiyalarni to‘liq qamrab ololmaydi.
3. “Taqqoslash uchun namunalar olish” deb atagan A.A.Zulfuqorov[34], L.P.Bakanova[35], T.B.Mamatqulov, Q.K.Qurambaev, X.A.Turabbaev. Bu atama eng sodda va lo‘nda ko‘rinishda bo‘lsa-da, tergov harakatining mazmunini faqat qiyoslash bilan cheklab qo‘yadi.
4. “Tajribaviy namunalar olish” va “solishtirib o‘rganish uchun namunalar olish” kabi atamalarni qo‘llagan A.U.Halilov[36]. Bunday atamalar jinoyat-protsessual qonunchiligining rasmiy terminologiyasidan sezilarli darajada farq qilib, tergov harakatining mohiyatini keskin toraytiradi.

Yuqoridagi terminologik xilma-xilliklar jinoyat-protsessual huquq doktrinasida yagona yondashuvning shakllanmaganligidan dalolat beradi. Bu esa, o‘z navbatida, huquqni qo‘llash amaliyotida tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi, tergov harakatining protsessual ahamiyati va natijalaridan foydalanish imkoniyatlarini to‘g‘ri anglashga to‘sinqlik qilishi mumkin.

Shuningdek, ayrim hollarda bir muallifning o‘zi ham turli ilmiy ishlarida, hatto bir ilmiy ishning turli qismlarida ham turli atamalarni qo‘llashi kuzatiladi. Bu esa yuridik terminologiyani standartlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Beshinchi guruhga ushbu tergov harakatining asl mazmunini to‘g‘ri va to‘liq ifodalashga harakat qilgan olimlarni kiritish mumkin. Ularning yondashuvi mazkur protsessual harakatning huquqiy va ilmiy jihatlarini aniq ifodalashga qaratilgan bo‘lib, ular uni “ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish uchun namunalar olish” sifatida ta’riflaydilar. Xususan, B.A.Rajabov[37] o‘z ilmiy tadqiqotlarida ushbu atamadan foydalangan, N.A.Xushvaktova[38] esa “ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish” iborasini ishlatgan. Bizningcha, ularning yondashuvi mazkur tergov harakatining barcha zaruriy huquqiy jihatlarini qamrab olib, uning mazmun-mohiyatini to‘liq va aniq ifodalashga xizmat qiladi.

Olimlarning ushbu tergov harakatini turlicha nomlashiga sabablardan biri – amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida (JPK) uning bir xil emas, balki bir necha turli atamalarda ifodalanganidir. Xususan, JPKda ushbu protsessual harakat “ekspertiza tadqiqotlarini o’tkazish uchun namunalar olish”, “ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish” va “ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish” shakllarida uchrashidadir.

Mazkur tergov harakatining turlicha atalib kelinishi olimlar o’rtasida yagona yondashuvning shakllanmaganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, mazkur protsessual harakatga oid aniq ta’rif ilmiy ishlar va o’quv qo’llanmalarda deyarli uchramaydi. Kamdan-kam hollardagina, xususan, B.N.Rashidov kabi ayrim olimlar tomonidan unga ta’rif berilgan.

Ushbu tergov harakatining mohiyatiga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi uning turlicha nomlanishiga sabab bo’lgan bo’lishi mumkin. Shuning uchun mazkur protsessual harakatga aniq ta’rif berish, uning huquqiy tabiatini aniq belgilash va uning yagona atamasi hamda bir xil amaliyot asosida qo’llanilishini ta’minalash huquqiy ilmiy izlanishlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

B.N.Rashidov[39]ning ta’rifiga ko’ra, “Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish” deganda, keyinchalik ekspertiza tayinlash va tekshirish ob’ekti sifatida ekspertga taqdim etish maqsadida tirik inson, murda, hayvon, o’simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi namunalarni olish tushuniladi.

“Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish” tergov harakatida yuqoridagi mazmunda berilgan ta’rif umumiy mazmunini ifoda etib, uning asosiy jihatlarini ochib bermagan va ushbu tergov harakatini chegarasini ko’rsatmagan.

Ushbu tergov harakatini chegarasi esa amalda JPKda ko’rsatilgan bo’lib, ushbu tergov harakati tartibga olivchi normalarni o’zida ham turli ziddiyatli holatlarni uchratish mumkin. Mazkur ta’rifning yutug‘i ham, kamchiligi ham ushbu ziddiyatli kamchiliklarga umuman munosabat bildirmay unga uzoqdan umumiy to’xtalib o’tishda ifodalanadi.

1. Ta’rifda “tirik inson, murda, hayvon, o’simlik, buyum, material yoki modda” keltirilgan bo’lib, biologik, kriminalistik, texnik va boshqa tarzlarda olingan namunalarning turlari (qon, soch, so’lak, dastxat, daktiloskopik izlar, fonogramma va boshqalar) aytib o’tilib qolgan;

2. Namunalar olish eksgumatsiya, tintuv, olib qo’yish, ko’zdan kechirish kabi tergov harakatlari bilan birga amalga oshirilishi, shuningdek eksperimental va erkin namunalar to’g’risidagi ma’lumotlar ko’rsatilmagan;

3. O’zR. JPKning 190-moddasiga asosan, namunalar olish guman qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, tibbiy yo’sindagi majburlov chorralari qo’llash bo’yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxslardan olinadi, bunda yalang’ochlash, kasb mahorati talab qilingan holatlarda tibbiy mutaxassislarning ishtiroki talab qilinishi aytib o’tilgan.

Yuqoridagi fikrlarni o‘rganib chiqqan holda qonunchiligidizda “Ekspertiza tadqiqoti o‘tkazish uchun namunalar olish” tushunchasini qo‘llashni to‘g‘ri degan g‘oyani ilgari surib, ushbu tergov harakatiga quyidagicha ta’rif berishni lozim topdik:

Ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish deganda — sud ekspertizasini o‘tkazish va tadqiqot ob’ekti sifatida ekspertga taqdim etish maqsadida qonunda belgilangan tartibda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, shuningdek tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan shaxslardan yoki boshqa manbalardan biologik (qon, so‘lak, soch, to‘qima, peshob), kriminalistik (dastxat, imzo, daktiloskopik izlar), texnik (tovush, fonogramma, raqamli ma’lumotlar) va boshqa turdagи erkin, shartli erkin yoki eksperimental namunalarni, shuningdek tirik inson, murda, hayvon, o‘simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi namunalarni mustaqil yoki boshqa tergov harakatlari (eksgumatsiya, tintuv, olib qo‘yish, ko‘zdan kechirish) bilan birgalikda, zarur hollarda mutaxassislarni jalb etgan holda olish, tegishli tarzda rasmiylashtirish, muhrlash va saqlash bo‘yicha protsessual harakatlar majmui tushuniladi.

Yuqoridagi ta’rifning tahlili shuni ko‘rsatadiki, u o‘zida namunalar olish tergov harakatining barcha muhim jihatlarini qamrab olgan. Biz taklif etgan bu ta’rif qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga va O‘z.R JPKning tegishli normalaridagi ziddiyatli jihatlarni bartaraf etishga xizmat qilishidan umid qilamiz.

Ushbu berilgan ta’rifda:

birinchidan, namunalar olish tergov harakatining maqsadi (ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar (materiallar) tayyorlash)ni;

ikkinchidan, protsessual asoslari (qonunda belgilangan tartibni);

uchinchidan, sub’ektlari (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh va boshqalar)ni;

to‘rtinchidan, ob’ektlari (biologik, kriminalistik, texnik namunalar)ni;

beshinchidan, namunalarning turlari (erkin, shartli erkin, eksperimental)ni;

oltinchidan, amalga oshirish shakllari (mustaqil yoki boshqa tergov harakatlari bilan birgalikdaligi)ni;

yettinchidan, protsessual rasmiylashtirish tartibi kabi barcha muhim elementlar aniq ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan "ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish" tushunchasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri va to‘liq hisoblanadi. Bu ta’rif kriminalistika va sud ekspertizasi sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni, shuningdek milliy qonunchilik talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Ta’rif qonun normalarini takomillashtirishda va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi mumkin.

Bu ta’rif mamlakatimizda jinoyat protsessual va ekspertiza tadqiqotlari sohalarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek jinoyat protsessida dalillarni to‘plash institutini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://izoh.uz/uz/word/ekspertiza> электрон манбага 10.02.2025 йилда мурожаат қилинди.
2. Ўзбекистон Юридик энциклопедияси. Нашр учун масъул Р.А.Мухитдинов ва бошқ. Маъсул муҳаррир Н.Тойчиев -Т: Адолат, 2009-Б. 545-546.
3. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/> электрон манбага 10.02.2025 йилда мурожжат қилинди.
4. <https://uz.wiktionary.org/wiki/ekspertiza> электрон манбага 10.02.2025 йилда мурожжат қилинди.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. www.ziyouz.com кутубхонаси. [Электрон манбага мурожаат қилинган вақти 11.02.2025 й]
6. <https://www.lex.uz/acts/111460> [Электрон манбага мурожаат қилинган вақти 11.02.2025 й]
7. 01.06.2010 йилдаги ЎРҚ-249-сон “Суд экспертизаси тўғрисида”ги қонуни 3-моддаси.
8. Ўзбекистон Республикаси ВМнинг 2023 йил 21 февралда қабул қилинган 73-сонли “Суд экспертизаси тадқиқотларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида” ги қарори 1-илова 2-банди 7-хатбоиси.
9. <https://izoh.uz/uz/word/tekshir> электрон манбага 10.02.2025 йилда мурожжат қилинди
10. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/> электрон манбага 10.02.2025 йилда мурожаат қилинди
11. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20U.pdf 310.бет [Электрон манбага мурожаат қилинган вақти 11.02.2025 й]
12. <https://izoh.uz/uz/word/namuna> электрон манбага 10.02.2025 йилда мурожжат қилинди.
13. <https://izoh.uz/uz/word/olish> электрон манбага 10.02.2025 йилда мурожжат қилинди.
14. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/8c2f3ce950529a94889f9-34dc122bc9e145a1f51/
15. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30594304#pos=2453;-56
16. <https://izoh.uz/uz/word/qiyosiy>

17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. www.ziyouz.com кутубхонаси. Б.275 Электрон манбага мурожаат қилингандан вақти 11.02.2025 й]
18. Қаранг. <https://izoh.uz/uz/word/tadqiqot>
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. www.ziyouz.com кутубхонаси. Б.637 Электрон манбага мурожаат қилингандан вақти 11.02.2025 й]
20. “Жиноят процесси” (умумий қисм) Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус талим вазирлиги томонидан юридик институт ва факултетлари талабалари учун дарслик сифатида тавсия этилади. Т-2011
21. А.А.Зулфуқоров “Йўл-транспорт ҳодисаси натижасида қолган изларнинг трасологик тадқиқоти” Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Т – 2021 й.
22. “Суд экспертизаси: саволларни шакллантиришнинг муҳим жиҳатлари” Ҳалилов А. У таҳрири остида муаллифлар жамоаси. Т-2021.
23. Жиноят ишлари бўйича маҳсус билимлардан фойдаланишнинг процессуал ва қриминалистик жиҳатлари. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2018. 306 бет.
24. “Терговга қадар текширув институтини такомиллаштириш” Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... учун ёзилган иш. Т – 2020
25. “Ишни судга қадар юритиш босқичида инсон геноми маълумотларидан фойдаланишни такомиллаштириш” Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс... Т - 2022 й.
26. 27. А.Х.Рахманкулов, Д.М.Миразов Даствабки тергов: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – 455-б. (тўлдирилган ва ўзгартирилган иккинчи нашри)
28. “Жиноят-процессуал мажбуриятлар ва уларни бажармаганлик учун жавобгарликнинг назарий, хуқуқий ва амалий жиҳатлари” юридик фанлар доктори (DSc) диссертацияси. Т-2019
29. “Ишни судга қадар юритишда шахснинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлари таъминланишини такомиллаштириш” Юридик фанлар доктори (DSc) диссертацияси, Тошкент – 2020
30. “Жиноят процессида далиллар назарияси муаммолари” Миренский Б., Асамутдинов А., Камалходжаев Ж. Жиноят процессида далиллар назарияси муаммолари: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2002. – 154 б.
31. “Жиноят ишлари юритувини инсонпарварлаштириш” юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс.. Т– 2020

32. “Трасологик экспертизалар ўтказишни такомиллаштириш” Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) Тошкент – 2020.
33. Жиноятларни тергов қилишнинг криминалистик методикаси: Ўқув қўлланма / Р.Р.Шакуров, Ш.Т.Джуманов, Н.Тоштемиров, Д.Р.Тураева, О.Д.Алланазаров. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 87 б.
34. “Йўл-транспорт ҳодисаси натижасида қолган изларнинг трасологик тадқиқоти” Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган. Т– 2021 йил.
35. Криминалистик техника: Маъruzalар курси. – Т.: ЎзРес. ИИВ Академияси, 2004. – 135-6.
36. “Суд экспертизаси: саволларни шакллантиришнинг муҳим жиҳатлари” Ҳалилов А.У таҳрири остида муаллифлар жамоаси. Т-2021.
37. “Ишни судга қадар юритишда исбот қилишнинг умумий шартларига риоя этилишини таъминлаш” Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация Т-2019 й.
38. “Ишни судга қадар юритишда жамоатчилик иштирокини такомиллаштириш” Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган Тошкент – 2023.
39. Ички ишлар органларида суриштирув: Маъruzalар курси / Рашидов Б.Н., Акилов А.Р., Муродов Б.Б. ва бошқ.; Масъул мухаррир юридик фанлар доктори, профессор М.А.Ражабова. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 138 б